

## IKKI TILLILIKNI EGALLASHNING ENG TARQALGAN USULI

Abdusalomov Hiloliddin<sup>1</sup>, Jo'raqulov Rustam<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Ilmiy rahbar

<sup>2</sup>SamDCHTI Ingliz tili fakulteti

204-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6285288>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ikki tilni egallashdagi keng tarqalgan usullar yoritib berilgan. Bugungi kunda globallashtiruv jarayonida bir til bilan cheklanib qolmasdan, boshqa xorijiy tillarni bilish dolzarb mavzulardan biri bo'lib bormoqdayu Zero, ikki va undan ortiq tilni bilish va ko'nikmaga ega bo'lish o'sha mamlakat haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** diglossiya, monoglossiya, bilingvizim, poliglossiya, qabila tillari

### Самые распространенные методы приобретения двуязычия

### Аннотация

В данной статье описаны распространенные методы двуязычия. Сегодня в процессе глобализации все большее значение приобретает знание других иностранных языков, а знание двух и более языков требует большего знания страны.

**Ключевые слова:** диглоссия, моноглоссия, двуязычие, полиглоссия, триба языки.

Til holatining eng soddasi shaxs yoki til ahlining tilning faqat bir formasidan foydalanishidir. Bu monoglossiya deb yuritiladi.(mono-bir, glossa-til), ya'ni bir til formasidan foydalanish demakdir.

Monoglossiyaga zid tarzda qo'yiluvchi til ko'rinishi-varianti diglossiya deb yuritiladi. Diglossiya (di-ikki, glossa-til) ikki tildan foydalanish demakdir. Individdning yoki jamiyatning birdan kup kodni ishlatilishi natijasida bilingvizm xodisasi ruy beradi. Diglossiya esa, shu funksional ajratishning baxolash natijasidir, shuning uchun diglossiya va bilingvizm nutqda ham birga ham alohida kelishi mumkin. Monoglossiya kam uchraydi: dialekt, urug' tili yoki qabila tillariga xosdir. Qabila tillarida ham dialektlar aytarli darajada yo'q.

Diglossiya - boshqacha (poliglossiya-ko'p til) dan foydalanish demakdir. Monoglossiya kam uchraydi: dialekt, urug' tili yoki qabila tillariga xosdir.

Qabila tillarida ham dialektlar aytarli darajada yo'q. Aslida, monolingvizm deganda biz yagona jamiyatda ishlatadigan monolit differensiyasiz kodli sistemaning, undagi xar bir a'zo yagona kod bilan ishlatadigan sistema borligini taxmin qilishimiz kerak, ammo bu vaziyat haqiqiy emas.

Kodlar orasida ba'zi farqlar bor: ishlatishning mikro darajada ham ijtimoiy ishlatishning makro darajasida ham. Bularni sotsiolingvistika masalasida aniqlash, farqlash va alohida o'rganish lozim. Biz bilingvizmni ham shaxsiy, ham jamiyatdagi tanlov ma'nosida kurib chiqdik lekin uni ijtimoiy baholamadik. Odatda, bunday xolatlarda shu ikki farqlar orasida funksional taqsimot mavjud: 1 - formal jamoat uchun saqlanadi va bu davlatning yuridik rasmiy tili hisoblanadi, bu til 2- dan murakabligi va formal konservativ belgilari bilan ajratib turadi, 3- dan esa ko'proq qadimgi adabiyotda, uyda, og'zaki muloqotda ishlatiladi. Agar jamiyatda diglossiya mavjud bo'lsa aksariyat odamlar imkoniyat darajasida biror bir tilni ikkinchi til sifatida o'zlashtirib boradilar. Ammo kimdir har ikkala tilni ham mukammal egallay oladi, ba'zilar esa ikkinchi tilni bilishda oqsaydilar. Boshqalar esa ikkinchi tilda so'zlashadilar, yozishda qiynalashadilar va aksincha. Darhaqiqat, diglossiya xodisasi barkamol emas, chunki tillar turli darajada qorishib ketishi an'anasiga ega. Bu jarayon ayniqsa ular genetik jihatidan qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik tez kechadi.

Bilingvizm odatda bola ota-onasi turli millatga mansub oilada voyaga yetganda yuzaga keladi. Ba'zi xollarda bolakay ikkinchi tilni enaga qo'lida tarbiya topganda ham egallashi mumkin. Ammo oila boshqa tilda so'zlashuvchi muhitga tushib qolganda (qochoqlik, immigrantlik) ham o'zlashtirilishi eng keng tarqalgan xolatdir.

Ikkitillilikni egalashning keng tarqalgan usuli- bu maktabda chet tilining o'qilishidir. Ta'lim darajasining yuksalishi butun yer yuzi aholisining qandaydir ma'noda ikki tilni egallashga sabab bo'lmoqda. Xorijiy va kam sonli millat vakillarining tillarining o'rganish bosqichma-bosqich maktab dasturidan o'rin olmoqda. Trans milliy hamkorlikning tobora kengayib borishi o'qitishning real motivatsiyasini yaratmoqda. Bilingvizm ikkinchi tilni mukammal yoki sust bilish orqali ham namoyon bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlarda kishilar uyida o'z lahjasi shevasida yoki mahalliy tilda so'zlashadilar. Rasmiy holatlarda esa davlat tilining adabiy ko'rinishida muloqotga kirishadilar. Odatda davlat tilida, adabiy tilda so'zlashishga maktabda o'rgatiladi (bunday xolat diglossiya deb ham ataladi). Masalan, nemis tilida so'zlashuvchi Shvetsariyada har kuni o'zaro suhbatda shevada maktabda yuqori

sinflarida, rasmiy muloqotlar chog'ida, televideniya (intervyu va halq pyesalaridan tashqari) standart nemis tilida fikr almashadilar. Afrikaning ba'zi joylarida- uyda va ko'chada mahalliy tilda so'zlashuvlaridan tashqari va umumdinniy muqaddas kitob – Qur'on tilida ham gaplashadilar. Paragvayda aksariyat axoli ikki tilda: rasmiy muloqotda ispan, milliy til guarani tilida aloqa qiladilar. Odatda o'zaro muomiladagi xilma-xillik juda yuqori maqomga ega emas va kam qo'llaniladi, yozma shaklida foydalanilmaydi. Shuning uchun hamma joyda adabiy til davlat tilidao'qitiladi.

Agar jamiyatda diglossiya mavjud bo'lsa aksariyat odamlar imkoniyat darajasida biror bir tilni ikkinchi til sifatida o'zlashtirib boradilar. Ammo kimdir har ikkala tilni ham mukammal egallay oladi, ba'zilar esa ikkinchi tilni bilishda oqsaydilar. Boshqalar esa ikkinchi tilda so'zlashadilar, yozishda qiynalishadilar va aksincha.

Darhaqiqat, diglossiya xodisasi barkamol emas, chunki tillar turli darajada qorishib ketishi an'anasiga ega. Bu jarayon ayniqsa ular genetik jihatidan qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik tez kechadi.

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzi aholisining qariyb 70 foizi ikki yoki undan ortiq tilni u yoki bu darajada bilishadi (multilingvizm-ko'p tillilik). Bu xol xususan bir oilaga mansub tillarda so'zlashuvchi turli millat vakillari bir-biriga yaqin yashovchi mintaqalarda yuz beradi. Aytaylik, Dog'iston, Janubiy Amerika hindulari, Yangi Gvineyada huddi shunday holni kuzatish mumkin, chunki bu xududlarda yashovchi har bir kishi mahalladoshlarning, ya'ni bir nechta tillarni yoki muomala vositasi bo'lgan tilni albatta bilishi zarur, deb xisoblanadi.

Yer yuzidagi mamlakatlarning to'rtidan bir qismida ikki tilni rasman tan olishadi, faqatgina olti davlatdauch va undan ortiq tillarda so'zlashadi. Axoli o'rtasidagi multilingvizm- bu doimiy xodisa emas, chunki qaysidir mamlakatda bilingvizm miqdori ortib borsa, aksincha, boshqa davlatda qisqarib borishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Yenekiyev R. Til haqidagi qonunlarga oid // Til va adabiyot ta'limi, 1997. – № 2. 88-90b.
2. Shomatov O. Janubiy Osiyo tillariga kirish. – Toshkent, 2003
3. Benson, CJ. Real and Potential Benefits of Bilingual Programs in Developing Countries. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism 2010. 303–317b.
4. Cooney, JW. Repression to Reform: Education in the Republic of Paraguay–History of Education Quartely 1983. -413–428b
5. Ferguson, CA..Diglossia. Word 1983.-325–340b.
6. Fishman, JA. Bilingualism with and without Diglossia; Diglossia with and without Bilingualism. J Soc Issues 1967.- 29–38b.
7. Hauck, JD. Language Under Construction: Bilingualism in Paraguay and Some Unsettled Thoughts about Language. Berlin: WeiBenser Verlag 2009.-124b.
8. Hudson, A. Outline of a theory of diglossia. Lang 2002.- 148b
9. Lopez, L E. Reaching the unreached: indigenous intercultural bilingual education in Latin America. Background paper prepared for the EFA Global Monitoring Report. 2009.